# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI

**Urozimbetova Sarvinoz Rustam Qizi**
*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*
**Turdiyeva Dilorom Toshpolatovna**
*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*
**Musurmonqulova Yaxshigul Ilhom Qizi**
*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

**Ka'lit so'zlar:** *ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, metod, mashg'ulot.*

Ta'lim- maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarini muntazam re-jali ravishda rivojlantirib borishdan iborat. Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoyev

Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirinio'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylikposbonlari, kelajak bunyodkor-

Lari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat ehtirom ko'rsatishimiz kerak deya ta'kidlagan. Prezidentimiz hozirgi kunda ta'lim va tarbiyaga juda kata e'tibor qaratmoqda. "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Maktab ta'limini rivojl;antirsak, oliy ta'lim ham ilm ham kelajakda rivojlanadi deb ta'kidlagan. Ta'lim – MTTning ta'lim tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qo'llantirish,malaka va ko'nikmalarni shakillantirishdan iborat. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Asosan ta'lim jismoniy, esteti va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Ta'lim jarayonida bolalarga o'quv faoliyatlari hosil qilinadi, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limni ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvoviqdir:bolalarga ta'lim berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan, usullardan foydalanishi kerak. Masalan kuzatish metodi. Bu metod orqali bolalar tevarak atrof bilan tanishadi. Bunda bolalar ko'rish eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.Asosan bu metod yangi bilim berishda qo'llaniladi. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi:ularning bilimlari boyitiladi,madaniy gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarni shakillantirib boradi. Ammo bolalarga ta'lim berishda bosh ro'lni mashg'ulot egallaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limning umumiy, jamoaviy va yakka tartibdagi shakillaridan foydalaniladi. Bundan tashqari bolalarga ta'lim berish ishlariekskursiya,

didaktik o'yinlar orqali kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarda, ularning o'yinlarigarahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda kata ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bollar o'quv m,alakasini egallab oladilar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim - tarbiya dasturida ham har bir yosh guruhda hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va vaqti belgilab qo'yilgan . Asosan mashg'ulotda tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalarning bilimlarni o'zlashtirishi tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Masalan: Elementlar matematika mashg'luloti, ona tili mashg'uloti, jismoniy tarbiya mashg'uloti, rasm, loy, oplekatsiya konstruktivlash, kompyuter mashg'uloti va shunga o'xshash mashg'ulotlar. Bog'chalardagi ta'lim jarayoni aniq, to'liq holda va ko'rsatmali vositalar bilan o'tkazilishi kerak. Doimiy ravishda o'tkaziladigan ana shunday mashg'lulotlar natijasida bog'cha yoshidagi bolalarda bilimlarni o'zlashtirishga ishtiyoq, qiziqish, bilimlarga havas ortib boradi.

## XULOSA

Hozirgi kunda jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishn uchun mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda SHu bilan birga, yoshlar ta'lim tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tadbiq etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yurt ravnaqi yo'lida ularning faol ishtirokini ta'minlashni bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanmoqda. Biz yoshlarga yaratilayotgan ana shunday sharoitlardan oqilona foydalanib, yurtimiz kelajagi gullab yashnashi va yuksalishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT:

1. SH.M.Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi''gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ma'rifat" gazetasi. Toshkent-1997-yil 1- oktyabr
3. SH.SHodmonova, "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.Toshkent.2003.
4. Qalampir.uz.
5. Xabar.uz.
6. Lex.uz.